

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Masharipova Manzura Alimbayevna

“Ma'mun universiteti” NTM, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti

ORCID:0009-0002-2108-5237

E-mail: manzuraalimbaevna@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqada xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kichik biznesning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishining zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, sohani rivojlantirish bo'yicha mamlakatimiz rahbari tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar, taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va belgilangan vazifalar, shuningdek ularning mazmun va mohiyati yoritilib, ilmiy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, xizmat ko'rsatish va servis, kichik biznes, tadbirkorlik, kichik biznes subyektlari, mexanizm, zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, davlat tomonidan tartibga solish, qo'llab-quvvatlash.

Аннотация

В данной статье проанализированы современные механизмы функционирования и развития малого бизнеса в сфере услуг в регионе. Кроме того, освещены указы и постановления, принимаемые главой нашей страны по развитию отрасли, меры, направленные на развитие предпринимательства в стратегии развития и поставленные задачи, а также их содержание и сущность, приведены научные рекомендации.

Ключевые слова: регион, сфера услуг и сервиса, малый бизнес, предпринимательство, субъекты малого бизнеса, механизм, современный организационно-экономический механизм, государственное регулирование, поддержка.

Abstract

This article analyzes the modern mechanisms for the functioning and development of small businesses in the service sector of the region. In addition, the decrees and resolutions issued by the head of our country on the development of the industry, the measures aimed at developing entrepreneurship in the development strategy and the tasks set, as well as their content and essence, are highlighted, and scientific recommendations are given.

Keywords: region, service, small business, entrepreneurship, small business entities, mechanism, modern organizational and economic mechanism, state regulation, support.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar zamirida kichik biznes va tadbirkorlik (KBT) faoliyatini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur islohotlar ta'sirida bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni, yalpi ichki mahsulotning o'sishi, aholi bandligini ta'minlash

bilan birga, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonlaridagi faol ishtiroki orqali namoyon bo'lmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”da “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan hamda bu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalar belgilab qo'yildi. Jumladan:

- Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “Ochiq mulqoti”ni o'tkazish.

- Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish.

- Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish.

- 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foiz darajasiga kamaytirish.

- Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish.

- Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish.

- Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish.

[1]

Ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga hamda ular uchun keng imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilinmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan foydalanishda zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni topish, ularga egalik qilish va ulardan samarali ravishda foydalanish yo'nalishida keng imkoniyatlar berilishi tadbirkorlar faoliyati samaradorligining ortishiga olib kelmoqda.

Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida KBTni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari va ularni takomillashtirish muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasi (XKS)ning respublika mintaqalarida notekis va nomutanosib rivojlanganligi, joylarda mazkur sohada KBT salohiyati hamda zaxiralaridan samarali foydalangan holda keng rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi va mintaqalarda XKSda KBTni yanada rivojlantirish bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarda va iqtisodiyot tarmoqlarida KBTni barqaror rivojlantirish hamda tartibga solish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimizga ko'ra, muayyan bir mamlakat yoki mintaqada, hududda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, geodemografik, ijtimoiy-madaniy, tabiiy-iqlimiy va boshqa omillardan, xususiyatlardan kelib chiqqan holda KBTni rivojlantirishning o'ziga xos zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari qo'llanilishi zarur.

KBTni rivojlantirish va tartibga solish aksariyat rivojlangan mamlakatlarda

maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Mazkur dasturlar tartibga solishning maqsad va vazifalari, imkoniyat va shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda turli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Iqtisodchi olim U.V. G‘afurov doktorlik dissertatsiya ishida KBTni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishning eng keng tarqalgan turlari sifatida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar bilan ta‘minlash, soliqa tortishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, soliq imtiyozlari belgilash, yangi mahsulot yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishga ko‘maklashish, yangi mahsulotlarni kafolatlangan sotish bozorlari bilan ta‘minlash, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash kabilarni keltirib o‘tadi [2].

Shuningdek, KBT subyektlari maqom nuqtai nazaridan tijorat tashkilotlari, korxonalarining kasbiy-ijtimoiy birlashmalari kabi ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin va ular natijaviy hisobda foyda olish uchun birlashadilar [3]. Chunki, bugungi globallashuv va keskin raqobat sharoitida foyda olish uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va siyosiy-madaniy faollik ham zarur bo‘ladi. 2007-yilda iqtisodiy mexanizmlar nazariyasi (Mechanism Design Theory)ga salmoqli hissa qo‘shganligi uchun Nobel mukofoti olgan Leo Gurvis — iqtisodiy mexanizm konsepsiyasi uchun, Rodjer Mayerson — optimal auksionlar muammolarini tadqiq etganligi va Erik Maskin esa — implementatsiyaning universal mexanizmini taklif etganligi uchun taqdirlangan [4]. Bugungi iqtisodiy institutlarning zamonaviy nazariyasida ham yuqoridagi tadqiqotlar natijalari asos sifatida olinadi.

Yana bir iqtisodchi olim A.Yu. Chalenko iqtisodiy mexanizmning quyidagi asosiy farqli xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi [5]:

- Jarayonsiz mexanizm mavjud bo‘lmaydi, ya‘ni mexanizm faqat jarayonning vazifalarini bajarish uchun yuzaga keltiriladi;
- Mexanizm o‘z boshqaruviga ega emas, go‘yo “harakatsiz” va jarayonni boshqarishni kutish holatida bo‘ladi;
- Mexanizmni boshqaruv bilan birlashtirish — jarayonning ichki mazmunini tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “mexanizm” tushunchasi har xil ma‘nolarda qo‘llaniladi: “tartibga solish mexanizmi”, “davlat ishtirokidagi mexanizm”, “boshqarish mexanizmi” kabi tushunchalar farqlanadi [6]. Shuningdek, KBT subyektlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi esa 3 ta asosiy tushuncha asosida shakllanadi: “mexanizm”, “rivojlanish” va “KBT tuzilmasi”. Unga ko‘ra, KBT subyektlarini rivojlantirish — ko‘p maqsadli, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, sohaning o‘zaro “tashqi muhit”ga nisbatan, ya‘ni mahalliy, mintaqaviy va milliy iqtisodiyot darajasidagi aloqalarini, “ichki muhit” bilan, ya‘ni normal faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash uchun uning tarkibiga kiruvchi unsurlar bilan aloqalarini nazarda tutadi.

Shu bilan birga, “biznes” atamasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “biznes”, “faoliyat”, “mashg‘ulot” degan ma‘noni anglatadi. Biroq, bu atamaning aniq ta‘rifini topish qiyin. Turli davrlarda nashr etilgan iqtisodiy adabiyotlarda unga turli talqinlar berilgan. Ko‘pincha “biznes” va “tadbirkorlik” atamalariga bir xil ta‘rif beriladi.

Demak, zamonaviy iqtisodiy lugʻatda “biznes” — “tadbirkorlik”dir [7].

A.I. Ageyevning xulosalariga asosan — tadbirkorlikni tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalar va iqtisodiy erkinlik mavjud boʻlganda vujudga keladigan iqtisodiy hodisa deb hisoblagan. Shu bilan birga, iqtisodiy erkinlik, olimning fikriga koʻra, xoʻjalik yurituvchi subyektga iqtisodiy faoliyatning shakli va koʻlamini izlash hamda tanlash bilan bogʻliq mustaqil qarorlar qabul qilishni kafolatlaydigan muayyan huquqlarning mavjudligini tavsiflaydi [8].

Mahalliy olimlarimizning fikrlariga koʻra esa, tadbirkorlik — shaxsiy mulkiy daromad, foyda olish maqsadiga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati deb taʼriflanadi. Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) — tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, oʻzi tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir [9].

B. Sh. Akbarova tadbirkorga shunday taʼrif bergan: “Tadbirkor — oʻzining maʼlum bir miqdordagi moliyaviy mablagʻini tavakkal qilgan holda bozorga yangi gʻoya, mahsulot, xizmat va ishlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxs hisoblanadi” [10].

Umuman, KBTning zamonaviy mexanizmi ham nazariy, ham amaliy jihatdan koʻp yoʻnalishli talqin etiladi hamda nafaqat KBTning, balki milliy iqtisodiyot faoliyat koʻrsatishi va rivojlanishida ijtimoiy va xususiy manfaatlarining oʻzaro aloqalarini, uygʻunligini taʼminlaydi.

METODOLOGIYA


Maqolada ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy, qiyosiy va tizimli tahlil, tahlil va sintez, suhbat, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Oʻzbekistonda ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri — kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar oʻtkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-meʼyoriy hujjatlar, kichik biznesga koʻmaklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada, bugungi kunga kelib kichik biznes subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida — mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, isteʼmol tovarlari, qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari koʻrsatish, turizm, ovqatlanish, chakana savdo, transport va axborot-kommunikatsiya xizmatlari tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, mintaqa xizmat koʻrsatish tarmoqlarida kichik biznesni barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy mexanizmlar mohiyatini ochib berish, ularning amaliy qoʻllanilishi va samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonda 2017–2022-yillarda yalpi ichki mahsulot, sanoat, qurilish, bandlik, eksport va import sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (%da) 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. 2017–2022-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi [13]

1-rasmda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashda yetakchi o'rinni egallamoqda. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashda o'rtacha 76 % ga to'g'ri kelmoqda. Yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 13,5 % ga, sanoatda 15,2 % ga, bandlikda 4,1 % ga, importda 4,2 % ga kamayganligini; qurilishdagi ulushi 6,7 % ga, eksportda esa 7,6 % ga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Kichik biznesning eksportdagi ulushi ortayotganligi uning borgan sari raqobatbardosh hamda jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lib borayotganligini bildiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi ulushini ko'tarish uchun, albatta, bu respublikada faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni muhim ahamiyatga ega. 2023-yilda respublikamizda faoliyat olib borayotgan kichik biznes subyektlari soni 523 556 tani tashkil qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilda 462 834 tani tashkil etgan. Bu raqamlardan ko'rishimiz mumkinki, bir yilda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 60 722 taga oshgan [14].

Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishdan ham ko'ra, uning kelajakda rivojlanib ketishi, ish faoliyatini to'xtatib qo'ymasligi juda muhim. Mamlakatimiz rahbari tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar ham aynan mana shunday muammolarni oldini olish, raqobatbardoshlikni oshirish, eksport va bandlik ko'rsatkichlarini yanada ko'tarishga qaratilgandir.

Tadqiqotlar jarayonida amalga oshirgan tahlillarimizga ko'ra, umumiy holda KBTni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyida keltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari mavjud:

- KBT faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy mexanizmi;
- KBTni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- KBTni mulkiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- KBTni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;

- KBTni raqamli texnologiyalar asosida faoliyatini ta'minlash mexanizmlari.

Ushbu mexanizmlarni zamonaviylashtirish natijasida kichik biznes va tadbirkorlik mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, ko'plab ish o'rinlarini yaratadi, raqobat muhitini shakllantiradi, iste'molchilarni yangi tovar va xizmatlar bilan ta'minlaydi hamda yirik biznesning rivojlanishiga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yuqorida qayd etib o'tilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, mamlakatimiz iqtisodiyoti subyektlari faoliyatidan samarali foydalanishlarida katta imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birgalikda, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishda boshqaruv samaradorligi, tadbirkorlik sohasida qabul qilingan qarorlarning samarali bo'lishi bilan birga, davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik harakati samaradorligining oshishiga olib keladi hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlikdan foydalanish asosida ishlab chiqarish korxonalarining barcha faoliyat turlarini tashkil etish, ularning rivojlanishi va rentabelligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotimiz uchun istiqbolli sohalar rivojlanib, mamlakatimiz taraqqiyoti yanada yuqori bosqichlarga ko'tariladi.

Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini bosqichma-bosqich, tizimli va uzluksiz ravishda takomillashtirib borish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

Birinchidan, respublikamiz mintaqalarida KBTni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash muammolarini yechishga yagona kompleks yondashuvni ta'minlash;

Ikkinchidan, joylarda KBTni rivojlantirishning barcha yo'nalishlari, ularni loyihalashtirish va amalga oshirish bosqichlarini boshqarishda yagona tamoyilni qo'llash;

Uchinchidan, mintaqadagi KBTni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida yo'naltirilgan mablag'lardan maqsadli, samarali foydalanishni ta'minlash;

To'rtinchidan, KBTni qo'llab-quvvatlash bo'yicha infratuzilma tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

Beshinchidan, yagona ilmiy-uslubiy ta'minotni yaratish va undan foydalanish asosida boshqaruv yechimlarining sifati va mustahkamligini oshirish;

Oltinchidan, dasturlarni amalga oshirishda maqsadli nazoratni ta'minlash.

O'ylaymizki, yuqorida sanab o'tilgan islohotlarni amalga oshirish mamlakatimizda nafaqat xizmat ko'rsatish va servis, balki barcha iqtisodiyot tarmoqlarida KBTni rivojlantirishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashuviga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

2. Gʻofurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. Toshkent, 2016. Oʻzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. B. 53.
3. Шишкин Д.Г., Гершанок Г.А. Значение и классификация предпринимательских структур // Российское предпринимательство. – 2012. – № 22.
4. Измалков С.Б., Сонин К.И., Юдкевич М.М. Теория экономических механизмов (Нобелевская премия по экономике 2007 г.) // Вопросы экономики. – 2008. – № 1. – С. 4–26.
5. Чаленко А.Ю. О неопределенности термина «механизм» в экономических исследованиях // Капитал страны. – 2010. – 25 марта. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.kapital-rus.ru/articles/article/176697>.
6. Солодилова Н.З., Маликов Р.И. и др. О новых подходах к методологическому обеспечению эффективной предпринимательской политики в муниципальных образованиях // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2013. – № 4. – С. 14–19.
7. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 6-е изд., перераб. и доп. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – 512 с.
8. Агеев А.И. Предпринимательство: проблемы собственности и культуры. – Москва: Наука, 1991. – 112 с.
9. Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlari. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining choraklik nashri. Toshkent, 2023.
10. B.Sh. Akbarova. Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning oʻrni. Toshkent, 2021.
11. World Bank, 2023; OECD, 2020.
12. State Statistics Committee of Uzbekistan, 2024.
13. Stat.uz – sayt maʼlumotlaridan foydalanib yaratildi.
14. Tojiyeva M.M. Kichik biznesni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati. Qoʻqon Universiteti xabarnomasi, 9-son, maqola № 30.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**